



## THE TRANSFORMATION OF NEW UZBEKISTAN'S FOREIGN POLICY: A PRAGMATIC MODEL SERVING THE INTERESTS OF THE PEOPLE

*U. Mahmudov*

*Doctor of politics*

*Tashkent, Uzbekistan*

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** foreign policy, pragmatism, multi-vector foreign policy, economic diplomacy, Central Asia, strategic partnership, regional cooperation, international relations, national interest, New Uzbekistan.

**Received:** 13.05.26

**Accepted:** 14.05.26

**Published:** 15.05.26

**Abstract:** This study analyzes Uzbekistan's foreign policy through the lens of an active, open, pragmatic, and rational approach. It examines the transformation of foreign policy from a declarative framework into a strategic model oriented toward practical outcomes. The study also explores initiatives aimed at developing regional cooperation, advancing the "Central Asia Plus" formats, and elevating cooperation with leading actors such as the United States, the European Union, and China to an institutional level. The essence of foreign policy processes is examined through such concepts as realism, complex interdependence, soft power, two-level diplomacy, and the regional security complex.

## YANGI O'ZBEKISTON TASHQI SIYOSATINING TRANSFORMATSIYASI: XALQ MANFAATIGA XIZMAT QILUVCHI PRAGMATIK MODEL

*U. Mahmudov*

*Siyosiy fanlar doktori*

*Toshkent, O'zbekiston*

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit so'zlar:** tashqi siyosat, pragmatizm, ko'pvektorlilik, iqtisodiy diplomatiya, Markaziy Osiyo, strategik sheriklik, mintaqaviy hamkorlik, xalqaro munosabatlar, milliy manfaat, Yangi O'zbekiston.

**Annotatsiya:** Tadqiqotda O'zbekiston tashqi siyosati faol, ochiq, pragmatik hamda ratsional yondashuv asosida tahlil qilingan. Tashqi siyosatning deklarativ shakldan amaliy natijaga yo'naltirilgan strategik modelga aylanishi tahlil qilingan. Shuningdek, mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish, "Markaziy Osiyo plus" formatlari, AQSh,

Yevropa Ittifoqi hamda Xitoy kabi yetakchi aktorlar bilan hamkorlikni institutsional darajaga ko'tarish borasidagi tashabbuslar o'rganilgan. Tashqi siyosiy jarayonlar mohiyati realizm, kompleks o'zaro bog'liqlik, yumshoq kuch, ikki darajali diplomatiya hamda mintaqaviy xavfsizlik kompleksi kabi tushunchalar orqali ochib berilgan.

## ТРАНСФОРМАЦИЯ ВНЕШНЕЙ ПОЛИТИКИ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА: ПРАГМАТИЧЕСКАЯ МОДЕЛЬ, СЛУЖАЩАЯ ИНТЕРЕСАМ НАРОДА

*У. Махмудов*

*Доктор политических наук  
Ташкент, Узбекистан*

### О СТАТЬЕ

Ключевые слова:	Аннотация:
внешняя политика, прагматизм, многовекторность, экономическая дипломатия, Центральная Азия, стратегическое партнёрство, региональное сотрудничество, международные отношения, национальные интересы, Новый Узбекистан.	В исследовании Узбекистана проанализирована на основе активного, открытого, прагматичного и рационального подхода. Рассмотрен процесс трансформации внешней политики от декларативной формы к стратегической модели, ориентированной на практические результаты. Также изучены инициативы по развитию регионального сотрудничества, форматов «Центральная Азия плюс», а также по выведению сотрудничества с такими ведущими акторами, как США, Европейский союз и Китай, на институциональный уровень. Сущность внешнеполитических процессов раскрыта через такие концепции, как реализм, комплексная взаимозависимость, мягкая сила, двухуровневая дипломатия и комплекс региональной безопасности.

**Kirish.** Bugun O'zbekiston ochiq, pragmatik hamda proaktiv tashqi siyosatni izchillik bilan davom ettirmoqda. Bu yondashuv davlat rahbari tomonidan mamlakatning xalqaro nufuzini mustahkamlash, uning mintaqaviy va global jarayonlardagi rolini oshirish hamda mamlakat ichida barqaror rivojlanishni ta'minlash maqsadida amalga oshirib kelayotgan ongli strategik tanlovidir. Prezident Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "ochiq, pragmatik, puxta o'ylangan va

tashabbuskor tashqi siyosatimiz natijasida O‘zbekiston global tinchlik va diplomatiya markazlaridan biriga aylanib bormoqda”.

Mamlakatdagi izchil islohotlar - iqtisodiy liberallashtirish, davlat boshqaruvini modernizatsiya qilish, investitsion muhitni yaxshilash va infratuzilmaviy rivojlanish tashqi siyosatning mazmunan yangilanishini talab etmoqda. Shu ma’nodagi diplomatiya endilikda nafaqat davlatlararo munosabatlarni yuritish mexanizmi, balki iqtisodiy o‘rinish, ijtimoiy barqarorlik va inson manfaatlariga xizmat qiluvchi amaliy siyosiy vositaga aylanmoqda.

Davlat rahbari tomonidan 2025-yilda 26 ta xorijiy davlatga oliy darajadagi tashriflar amalga oshirilgani, “Markaziy Osiyo plyus” formatlaridagi ko‘p tomonlama muloqotlarning faollashgani hamda so‘nggi yillarda 11 ta davlat bilan strategik sheriklik munosabatlari o‘rnatilib, ularning umumiy soni 19 taga yetgani O‘zbekiston tashqi siyosatining yangi dinamikasini ko‘rsatmoqda.

Xalqaro munosabatlar nazariyasida, bu jarayon mamlakat tashqi siyosatining “maqsad - vosita - natija” zanjirida aniq pragmatik mezonlarga tayanayotganini anglatadi. Hans Morgentauning klassik realizmga oid mashhur ta’biri bilan aytganda, “xalqaro siyosat, har qanday siyosat kabi, hokimiyat uchun kurashdir”. Biroq Yangi O‘zbekiston tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, bu kurash faqat qat’iy geosiyosiy raqobat bilan emas, balki muzokaraviy salohiyat, iqtisodiy manfaatdorlik, institutlashgan hamkorlik va ishonch kapitalini to‘plash orqali olib borilmoqda.

O‘zbekiston tashqi siyosati transformatsiyasini tahlil qilishda quyidagi nazariy yondashuvlardan foydalanish mumkin:

Birinchidan, tashqi siyosat transformatsiyasini tahlil qilishda realistik yondashuv muhim nazariy asoslardan biridir. Ushbu yondashuv davlat tashqi siyosatini, avvalo, milliy manfaat, suverenitet, xavfsizlik va kuchlar muvozanati kabi mezonlar orqali ochib beradi.

Ikkinchidan, Robert Keoxeyn va Jozef Nay tomonidan ilgari surilgan kompleks o‘zaro bog‘liqlik nazariyasi tashqi siyosatning iqtisodiy, texnologik, energetik, transport va gumanitar yo‘nalishlari o‘zaro chambarchas bog‘langanini tushuntirishda muhimdir. Ya’ni, zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimida davlatlar o‘rtasidagi munosabatlar faqat harbiy-siyosiy omillar bilan emas, balki savdo, moliya, kommunikatsiya va institutlar orqali ham shakllanadi.

Uchinchidan, Robert Patnemning “ikki darajali o‘yin” konsepsiyasi tashqi siyosat va ichki islohotlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni ochib beradi. Patnemga ko‘ra, “ko‘plab xalqaro muzokaralar siyosatini ikki darajali o‘yin sifatida tasavvur qilish mumkin”: xalqaro darajada davlatlar o‘zaro kelishuvga erishishga intilsa, ichki darajada hukumat jamiyat, iqtisodiyot va siyosiy institutlar manfaatlarini bilan hisoblashadi. O‘zbekiston misolida tashqi siyosatning

mamlakat ichidagi iqtisodiy o'sish, investitsiya, bandlik, ta'lim va infratuzilmaga xizmat qilishi ushbu nazariyaning amaliy ifodasidir.

To'rtinchidan, Barri Buzan va Ole Veverning mintaqaviy xavfsizlik kompleksi nazariyasi Markaziy Osiyodagi o'zaro bog'liq xavfsizlik muammolarini tahlil qilish imkonini beradi. Ushbu nazariyaga ko'ra, mintaqadagi davlatlarning xavfsizlik muammolari bir-biridan alohida holda samarali hal etilmaydi. O'zbekistonning qo'shni davlatlar bilan chegara, suv-energetika, transport, migratsiya va xavfsizlik masalalarida konstruktiv muloqotni kuchaytirishi mazkur nazariyaning amaliy tasdig'i sifatida namoyon bo'ladi.

#### Tashqi siyosat transformatsiyasi

Bugungi O'zbekiston tashqi siyosatida ramziylik emas, natija ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Davlat milliy manfaat rakursidan, imkoniyat va xatarlarni pragmatik tarzda baholab, har bir tashqi siyosiy tashabbusni ichki taraqqiyot maqsadlari bilan bog'lashga intilmoqda. Bu holat tashqi siyosatni mamlakat modernizatsiyasining tarkibiy qismiga aylantirmoqda.

Bugun xalqaro munosabatlardagi murakkab vaziyat - geosiyosiy keskinlik, global iqtisodiy noaniqlik, transport-logistika zanjirlarining qayta shakllanishi va yirik davlatlar raqobatining kuchayishi sharoitida amaliy natijaga yo'naltirilgan siyosat har qachongidan muhim. Tashqi siyosatda barqarorlik va muvozanat nafaqat diplomatik maqsad, balki milliy taraqqiyotni ta'minlovchi strategik masaladir.

Hedli Bullga ko'ra, davlatlar "umumiy manfaatlar va umumiy qadriyatlarni anglagan holda, o'zaro munosabatlarda muayyan qoidalarga bog'langanlikni tan olsalar va umumiy institutlar faoliyatida ishtirok etsalar", xalqaro jamiyat shakllanadi. O'zbekistonning xalqaro tashkilotlar, mintaqaviy formatlar va strategik sheriklik mexanizmlaridagi faolligi aynan shunday qoidalarga asoslangan hamkorlik muhitini kengaytirishga xizmat qilmoqda.

#### Tashqi siyosatning iqtisodiy o'lchami

Iqtisodiy diplomatiya tashqi siyosatning markaziy yo'nalishiga aylanmoqda. 2025-yilda umumiy qiymati 160 milliard dollarlik investitsiya loyihalari hamda savdo shartnomalari bo'yicha bitimlar imzolangani, tashqi savdo aylanmasining tarixda ilk bor 80 milliard dollardan oshgani, eksport 33,5 milliard dollarga, xorijiy investitsiyalar esa 43 milliard dollardan yuqori ko'rsatkichga yetgani tashqi siyosatning amaliy natijadorligini ko'rsatadi.

2025-yilda mamlakat tashqi savdo aylanmasi 81,2 milliard AQSh dollarini tashkil etdi; eksport 33,8 milliard dollarga, import esa 47,4 milliard dollarga yetdi. Bu raqamlar tashqi siyosatning iqtisodiy natijalar bilan bevosita bog'lanayotganini ko'rsatadi.

Tashqi siyosatning natijadorligi endilikda nafaqat diplomatik bayonotlar yoki protokol tadbirlari bilan, balki ish o'rinlari, investitsiya loyihalari, eksport bozorlari, infratuzilmaviy o'zgarishlar orqali baholanmoqda. Bu esa tashqi siyosatni xalq manfaatlariga xizmat qiluvchi amaliy mexanizm sifatida talqin etish imkonini beradi.

Markaziy Osiyo - yangi geosiyosiy makon

Mintaqaviy hamkorlik O'zbekiston tashqi siyosatining asosiy ustunlaridan biri hisoblanadi. Ko'p yillik ishonchsizlik, chegaraviy nizolar, suv-energetika muammolari va logistik cheklovlardan so'ng Markaziy Osiyoda ishonch va o'zaro hurmatga asoslangan yangi geosiyosiy muhit shakllandi.

2025-yilda O'zbekiston Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining yettinchi maslahat uchrashuviga mezbonlik qildi. Ushbu formatga Ozarbayjonning qo'shilishi mintaqaning iqtisodiy va infratuzilmaviy integratsiyasi, transport yo'laklarini rivojlantirish va o'zaro bog'langan yagona makonga aylanishida strategik ahamiyat kasb etdi.

So'nggi sakkiz yilda Markaziy Osiyo davlatlarining umumiy yalpi ichki mahsuloti qariyb 2,5 barobar o'sib, 520 milliard dollarga yetgani, tashqi savdo hajmi 2 barobardan ziyodga oshib, 253 milliard dollarni tashkil qilgani, mintaqaviy davlatlar o'rtasidagi o'zaro savdo qariyb 11 milliard dollarga yetgani va o'zaro investitsiyalar 5,6 barobarga oshgani mintaqaviy hamkorlikning iqtisodiy asoslari mustahkamlanayotganini ko'rsatadi.

Prezident ta'бири bilan aytganda, "mintaqaviy hamkorlik borasida boshlangan yangi bosqichning eng muhim yutuqlaridan biri - chegara masalalari uzil-kesil hal etilganidir". Yaqin o'tmishda ziddiyat manbai bo'lgan chegaralar bugun "do'stlik va hamkorlik ko'prigi"ga aylanmoqda.

Chegaralar, suv-energetika balansi, transport yo'laklari, Afg'oniston omili, migratsiya va iqtisodiy bog'liqlik kabi masalalar alohida davlatlar doirasida emas, balki umummintaqaviy yondashuv asosida hal qilinishi zarur bo'lgan masalalardir.

Uzoq yillar davomida mintaqada tashqi sheriklar bilan hamkorlik asosan ikki tomonlama formatda qurilgan bo'lsa, hozirgi kunda yetakchi davlatlar va integratsion tuzilmalar Markaziy Osiyo bilan to'laqonli mintaqaviy subyekt sifatida munosabat o'rnatmoqda. Bu holat mintaqaning xalqaro maydondagi manfaatlarini tizimli tarzda ilgari surishga sharoit yaratish barobarida, geosiyosiy raqobat obyektidan mintaqaviy tashabbus subyektiga aylantirdi.

Yetakchi davlatlar va integratsion tuzilmalar bilan hamkorlik

AQSh bilan munosabatlar

AQSh O‘zbekistonning G‘arbiy yarim shardagi ishonchli hamkorlaridan biri hisoblanadi. So‘nggi yillarda, ikki davlat o‘rtasidagi munosabatlar yangi dinamik mazmun kasb etmoqda. 2025-yilda O‘zbekiston va AQSh o‘rtasidagi siyosiy muloqotning faollashuvi, davlat rahbarlari darajasidagi uchrashuvlar hamda C5+1 formatidagi hamkorlikning institutsionallashuvi ikki tomonlama munosabatlar uchun muhim bosqich bo‘ldi.

C5+1 formati dastlab muloqot va muvofiqlashtirish maydoni sifatida shakllangan bo‘lsa, hozirda u aniq iqtisodiy kelishuvlar, transport-logistika, energetika, xavfsizlik, ta‘lim va texnologik hamkorlikni ilgari suruvchi platformaga aylanmoqda. 2025-yil noyabr oyida AQSh va O‘zbekiston savdo-iqtisodiy kelishuviga ko‘ra, O‘zbekiston keyingi uch yilda AQShning bir qator tarmoqlariga 35 milliard dollar, keyingi o‘n yilda esa 100 milliard dollardan ortiq hajmda investitsiya kiritishni rejalashtirgan.

Patnemga ko‘ra, tashqi kelishuvlar ichki iqtisodiy modernizatsiya, texnologik yangilanish va investitsion faollikka xizmat qilgan taqdirdagina barqaror siyosiy ahamiyat kasb etadi. Shu ma’noda, AQSh bilan hamkorlik nafaqat geosiyosiy balans, balki iqtisodiyotini global qiymat zanjirlariga bog‘lashning muhim yo‘nalishidir.

Ikki tomonlama hamkorlikda ta‘lim, fan, madaniyat va gumanitar sohalar ham alohida o‘rin tutadi. Talabalar almashinuvi, qo‘shma ilmiy loyihalar, raqamli texnologiyalar, tibbiyot va qishloq xo‘jaligi texnologiyalari sohasidagi hamkorlik O‘zbekistonning inson kapitali va innovatsion salohiyatini kuchaytirishga xizmat qiladi. Bu esa Jozef Nay ta‘riflagan “yumshoq kuch” kategoriyasining amaliy ifodasidir.

#### Yevropa Ittifoqi bilan strategik yaqinlashuv

So‘nggi yillardagi tashqi siyosatdagi tizimli o‘zgarishlar Bryusselda ijobiy qabul qilinib, siyosiy muloqotning sezilarli darajada jonlanishiga olib keldi. 2025-yilda Samarqandda birinchi “Markaziy Osiyo - Yevropa Ittifoqi” sammitining o‘tkazilishi mintaq va YeI munosabatlarida tarixiy voqea bo‘ldi. Yevropa Kengashi va Yevropa Komissiyasining qo‘shma bayonotida ushbu sammit orqali YeI va Markaziy Osiyo o‘rtasidagi hamkorlik strategik sheriklik darajasiga ko‘tarilgani, shuningdek, transport aloqalari, muhim xomashyo resurslari, raqamlashtirish, suv va energetika sohalar uchun 12 milliard yevrolik Global Gateway investitsiya paketi ishga tushirilayotgani qayd etildi.

2025-yil 24-oktyabr kuni Bryusselda Kengaytirilgan hamkorlik va sheriklik to‘g‘risidagi bitim imzolandi. Ushbu hujjat 1996-yilda imzolangan Sheriklik va hamkorlik to‘g‘risidagi bitimga asoslangan huquqiy bazani yangilab, hamkor ko‘lamini sezilarli darajada kengaytiradi. Mazkur bitimning imzolanishini O‘zbekistonning xalqaro iqtisodiy integratsiyasi, qonun ustuvorligi,

barqaror rivojlanish, raqamlashtirish hamda energetik transformatsiya sohalarida YeI bilan yangi institutsional bog‘lanish mexanizmi sifatida baholash mumkin.

#### Xitoy bilan keng ko‘lamli hamkorlik

Xitoy eng yirik savdo-iqtisodiy hamkorlaridan biri sifatida mamlakat tashqi siyosatida alohida o‘rin tutadi. Infratuzilma, energetika, transport, sanoat kooperatsiyasi, maxsus iqtisodiy zonalar, texnoparklar, “yashil” energetika va raqamli texnologiyalar sohasidagi hamkorlikda Xitoy strategik hamkor sanaladi.

2024-yilda o‘zaro tovar ayirboshlash 14 milliard dollarga, investitsiya loyihalari portfeli esa 60 milliard dollardan oshgan bo‘lib, savdo va investitsiya, texnologiyalar, transport, turizm, madaniy-gumanitar yo‘nalishlarda hamkorlik ko‘lami sezilarli darajada kengaygan .

2025-yil iyun oyida Samarqandda “O‘zbekiston - Xitoy” ikkinchi mintaqalararo forumi o‘tkazildi. “Markaziy Osiyo - Xitoy” sammiti doirasida davlat rahbarlari strategik hamkorlikni rivojlantirish, iqtisodiyot, transport, “yashil” energetika, investitsiyalar va savdo bo‘yicha yangi loyihalarni muhokama qildilar. Xitoyning Markaziy Osiyo bilan savdo aylanmasi 2025-yil yakunlariga ko‘ra 106,3 milliard dollarga yetgani mintaqaning Yevroosiyo iqtisodiy geografiyasidagi o‘rni kuchayib borayotganini ko‘rsatadi. Bu jarayonda O‘zbekiston uchun asosiy vazifa faqat savdo hajmini oshirish emas, balki iqtisodiy hamkorlikni yuqori qo‘shilgan qiymat, texnologiya transferi, lokalizatsiya, logistika va eksport diversifikatsiyasi bilan bog‘lashdan iborat.

Mamlakatimizning bugungi tashqi siyosat modelini “pragmatik-ko‘pvektorlilik” deb tavsiflash maqsadga muvofiq. Ushbu model uchta muhim vazifani bajaradi. Birinchidan, u mamlakatning geosiyosiy muvozanatini saqlaydi. Ikkinchidan, iqtisodiy taraqqiyot uchun tashqi resurslar, bozorlar va texnologiyalarni jalb etadi. Uchinchidan, mintaqaviy barqarorlikni mustahkamlash orqali milliy xavfsizlikni ta‘minlaydi.

Bunday yondashuv mamlakatni xalqaro munosabatlar subyekti sifatida o‘z pozitsiyalarini mustahkamlash barobarida, ichki taraqqiyotni rag‘batlantiruvchi institutsional mexanizm sifatida talqin qilish imkoniyatini beradi.

Tashqi siyosat va ichki islohotlar o‘rtasidagi bog‘liqlik kuchaygani sari diplomatiyaning samaradorlik mezonlari ham o‘zgarmoqda: endilikda diplomatik faoliyat natijasi investitsiya, eksport, ish o‘rinlari, texnologiya, ta‘lim va ijtimoiy farovonlik ko‘rsatkichlari bilan o‘lchanmoqda.

Albatta, mazkur model muayyan xatarlarni ham inkor etmaydi. Yirik davlatlar raqobatining kuchayishi, sanksiyalar rejimi, transport yo‘laklaridagi beqarorlik, energetika bozorlaridagi noaniqlik hamda mintaqaviy xavfsizlik tahdidlari O‘zbekiston tashqi siyosatida ehtiyotkorlik,

institutsionallashtirilgan muloqot va strategik avtonomiyani saqlashni talab qiladi. Pragmatik ko'pvektorlilik har bir hamkorlik yo'nalishida milliy manfaatlar, huquqiy kafolatlar hamda uzoq muddatli samaradorlikni ta'minlashni anglatadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Morgenthau, H. J. (2006). *Politics Among Nations: The Struggle for Power and Peace*. New York: McGraw-Hill.
2. Keohane, R. O., & Nye, J. S. (1977). *Power and Interdependence: World Politics in Transition*. Boston: Little, Brown and Company.
3. Putnam, R. D. (1988). *Diplomacy and Domestic Politics: The Logic of Two-Level Games*. *International Organization*, 42(3).
4. Nye, J. S. (2004). *Soft Power: The Means to Success in World Politics*. New York: PublicAffairs.
5. Bull, H. (1977). *The Anarchical Society: A Study of Order in World Politics*. London: Macmillan.
6. Buzan, B., & Wæver, O. (2003). *Regions and Powers: The Structure of International Security*. Cambridge: Cambridge University Press.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy veb-sayti. (2026, 15-yanvar). Tashqi ishlar vazirligi va xorijdagi diplomatik vakolatxonalar faoliyatini takomillashtirish ustuvor vazifalari belgilandi. [www.president.uz](http://www.president.uz).
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy veb-sayti. (2025, 17-iyun). Leaders of Uzbekistan and China discuss issues of further expanding practical cooperation. [www.president.uz](http://www.president.uz).
9. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. (2026, 22-yanvar). Uzbekistan's foreign trade turnover exceeded \$81 billion in 2025. [www.stat.uz](http://www.stat.uz).
10. O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi. (2025, 13-noyabr). Central Asia on the threshold of a new era.
11. Reuters. (2025, 7-noyabr). Trump says US, Uzbekistan reach trade deal.
12. Council of the European Union. (2025, 4-aprel). Joint press release following the first EU-Central Asia summit. [www.consilium.europa.eu](http://www.consilium.europa.eu).
13. European Commission / Council of the European Union. (2025, 24-oktyabr). EU-Uzbekistan Enhanced Partnership and Cooperation Agreement. [ec.europa.eu](http://ec.europa.eu).
14. Ministry of Commerce of the People's Republic of China. (2026, 21-yanvar). Trade turnover between China and Central Asia increased by 12% by the end of 2025.